

## O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARIGA DOIR

Xalmuxamedova U.R.,

*O‘zbekiston Milliy universiteti, katta o‘qituvchi*

**Annotatsiya.** *O‘zbek tilini xorijiy til sifatida jadal o‘qitish uchun kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materiallarni ma’lum bir tizim asosida berish, matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Bugungi kunda jahon tajribasida xorijiy tillarni o‘qitishda nutqiy mavzular doirasida darslarni tashkillashtirish keng yo‘lga qo‘yilgan. Tilni jadal ravishda o‘qitishning qulay usullaridan biri matn bilan ishlash metodikasi juda o‘rinli hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *og‘zaki va yozma nutq, lug‘at, matn, til o‘qitish, nutqiy faoliyat.*

**Аннотация.** *Для интенсивного обучения узбекскому языку как иностранному необходимо реализовать ряд задач, таких как предоставление коммуникативно-речевого, лексико-грамматического материала на основе определенной системы, формирование навыков работы с текстом. На сегодняшний день в мировой практике при обучении иностранным языкам широко налажена организация занятий в рамках речевых тем. Одним из удобных методов интенсивного обучения языку является методика работы с текстом.*

**Ключевые слова:** *устная и письменная речь, словарь, текст, обучение языку, речевая деятельность.*

**Abstract.** *For intensive teaching of the Uzbek language as a foreign language, it is necessary to implement a number of tasks, such as providing communicative-speech, lexical-grammatical materials based on a certain system, and forming the ability to work with text. Today, in world practice, the organization of lessons within the framework of speech topics in teaching foreign languages is widespread. One of the convenient methods of intensive language learning is the methodology of working with text.*

**Keywords:** *oral and written speech, vocabulary, text, language teaching, speech activity.*

**Kirish.** Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri o‘zbek tilining ravnaqi tufayli rivoj topib kelgani sir emas. Bugungi kunda yuksak maqomga ega bo‘lgan tilimizni e’zozlash, uning ravnaqi yo‘lida mehnat qilish, jon kuydirishning mavsumiylikdan doimiylikka o‘tib borayotgani quvonarli.

Dunyo hamjamaytida o‘z mavqeyi, obro‘-e’tibori, nufuziga ega bo‘lib borayotgan O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi xalqaro aloqalari kundan kun kengayib bormoqda. Bu voqelik madaniyatning qator sohalarida, jumladan o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborda ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Bugungi kunga kelib boshqa millat vakillari, chet elliklar tomonidan o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan intilish, qiziqish toboro ortib bormoqda. Hozirgi kunda bir qator davlatlar, xususan, Koreya, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Xitoyda mamlakatshunoslik doirasida O‘zbekistonni o‘rganishga e’tibor qaratgan ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muassasalari mavjud. O‘zbek tilini o‘rganish maqsadida respublikamizdagi ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalariga ushbu markazlardan mutaxassislar, izlanuvchilar, talabalar shuningdek, o‘lkamizda tadbirkorlik faoliyatini olib bormoqchi bo‘layotgan soha vakillari tashrif buyurishmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni o'qitish metodikasi, xususan, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, J.Jalolov, O'.Q.Tolipov va M.Usmonboeva asarlarida til o'qitishda kommunikativ yondashuv, tizimlilik va bosqichma-bosqichlik tamoyillarining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, M.X.Axmedova va boshqa tadqiqotchilar ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, til o'rgatishda matn bilan ishlash, leksik minimumni shakllantirish va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ilmiy-metodik asos sifatida e'tirof etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek tilini o'rganishga bo'lgan talab ortib borayotgan ushbu vaziatda mutaxassislar oldida chet elliklar uchun zamonaviy talablarga mos ravishda til o'rganishni yo'lga qo'yish vazifasi turibdi. Bu vazifani amalga oshirish uchun dastlab o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish darajalarini ishlab chiqish, tilni bosqichlarga bo'lgan holda o'qitish metodlarini ishlab chiqish, darsliklar yaratish, elektron resurslar yaratish, mustaqil ta'lim tizimini shakllantirish kabi masalalarni hal etish lozim bo'ladi.

Mazkur ta'lim jarayonining moddiy-texnikaviy ta'minotini takomillashtirish, ta'lim jarayonida samarali bo'lgan an'anaviy hamda zamonaviy interfaol dars usullarini tatbiq etish, zamon talablariga mos dastur va darsliklar yaratish, o'zbek tilini chet elliklarga jadal o'rgatish dasturi bo'yicha samarali o'qitish usul va metodini yo'lga qo'yish kerak.

**Tahlillar va natijalar.** O'zbek tilini xorijiy til sifatida jadal o'qitish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materiallarni ma'lum bir tizim asosida berish;
- imlo qoidalarini o'rgatish;
- og'zaki va yozma nutq ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish;
- lug'atdan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- o'quvchilar so'z boyligi va nutqiy malakani oshirish;
- o'zbek xalqining milliy madaniy o'ziga xosliklariga oid bilimlarni kengaytirish;
- nutq madaniyati borasida asosiy zaruriy bilimlarni berish;
- o'quvchilarni erkin fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga undash.

Mavzuli matn, unga mos suratlar, sodda grammatik qoliplar keltirilgan darsliklar mazkur masalaning yechimi bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda jahon tajribasida xorijiy tillarni o'qitishda nutqiy mavzular doirasida darslarni tashkillashtirish keng yo'lga qo'yilgan. Bunda soddadan murakkabga qarab mavzular va ularga mos so'zlar tanlanadi. Til o'rganishda bevosita o'rganilayotgan tilda

soʻz boʻyligini oshirib borish koʻzda tutiladi. Buning asosiy sinalgan usullaridan biri lugʻat bilan ishlashdir.

Maʼlumki, til oʻrganuvchi nutqiy faoliyat doirasida toʻrtta koʻnikmaga ega boʻlishi lozim. Bular oʻqish, tinglab tushunish, yozish, soʻzlash. Bu koʻnikmalarga ega boʻlish uchun esa eng avvalo soʻz boʻyligini oshirishga va dastlabki grammatik bilimlarga ega boʻlish talab etiladi. Bu talabni roʻyobga chiqarishda “mavzuli soʻzlashgich” lugʻatlarining oʻrni muhim.

“Mavzuli soʻzlashgich” lugʻatlarida soddadan murakkabga tamoyiliga rioya qilinadi. Maʼlum mavzu tanlanib unung mazmunini ochib beruvchi soʻz, soʻz birikmalari beriladi va tanlangan mavzuga mos dialog misol tariqasida keltiriladi. Bunda “faoliyat doirasi”, “faoliyat turi”, “muloqot joyi”, “muloqot vaziyati” kabi jihatlar eʼtiborga olinadi.

“Mavzuli soʻzlashgich” lugʻatlarida soʻz, soʻz birikmalarini tanlashda til oʻrganish darajasini eʼtiborga olingan holda yondashish lozim.

Boshlangʻich bilim darajasi – unda kundalik soʻzlashuvda zarur boʻlgan koʻnikmalarda ega boʻlishni taqazo qiladi:

- oson qoliqlar asosida muloqotga kirisha olish;
- sodda tuzilgan matnni oʻqiy olish;
- ogʻzaki murojaatni tinglab tushuna olish;
- maʼlum leksik minimumni (1000 ta soʻz) egallash.

Ikkinchi daraja – oʻrganuvchidan maʼlum grammatik bilimlarni, vaziyatga mos leksikani tanlay bilishni, erkin soʻzlashishni talab etadi:

- matnlarni (20 daqiqada 400 ta soʻz) ifodali oʻqiy olish;
- sodda mazmundagi matnlarni tushunish;
- matnlarda ifodalangan turli darajadagi axborotlarni tushunish;
- 100-150 ta soʻzdan iborat boʻlgan oʻrtacha murakkablikdagi matnni oʻzbek tilidan ona tiliga, ona tilidan oʻzbek tiliga tarjima qila olish;
- ogʻzaki muloqot koʻnikmalariga ega boʻlish;
- maʼlum leksik minimumni (2-2500 ta soʻz) egallash.

Uchinchi daraja – oʻrganuvchidan grammatik bilim, ogʻzaki va yozma insho malakasini, badiiy tarjima koʻnikmasini talab etadi:

- dialog va monolog koʻnikmalariga ega boʻlish;
- tinglab nutqni tushuna olish;
- oʻqilgan yoki eshitilgan matnni tarjima qila olish;
- berilgan matnni qisqartira olish;
- ilmiy, rasmiy, badiiy uslubda ishlay olish;
- maʼlum leksik minimumni (25000-4000 ta soʻz) egallash;
- tabriknoma, maktub, axborot xati kabilarni yoza olish koʻnikma va malakalarini egallagan boʻlishi lozim.

Bilim darajasi talabi doirsida leksik minimumni shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shu o'rinda xulosa qilib aytish mumkinki, jadal suratda til o'qitish qaysi bilim darajasini egallashga yo'naltirilganligi bilan farqlanadi. Talabga muvofiq tarzda darslik va lug'atlar tavsiya etiladi. Til o'rganuvchining so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa, uning uchun erkin muloqot qilish imkoniyati ham shuncha kengayadi.

Tilni jadal ravishda o'qitish tizimli yondashuvni taqazo etadi. Bu o'rinda matn bilan ishlash juda qo'l keladi. Belgilab olingan mavzular doirasida og'zaki va yozma nutqni shakllantirish uchun har bir mavzuni mustahkamlash, o'rganuvchi so'z boyligini oshirish, ma'lum mavzularda erkin, mustaqil ravishda fikr bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan matnlardan foydalanishni taqozo etadi. Og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan matnlar mavzusini grammatik mavzular bilan mos ravishda tanlash lozim. Bu bilan til o'rganuvchining ham nazariy, ham amaliy bilimlarini oshirishga kommunikativ hamda grammatik masalalar echimiga erishish mumkin.

Grammatik mavzuga mos leksik qoliplar yordamida mavzu mustahkamlanadi va nutqiy vaziyatga mos matn – dialog yoki monolog shaklida beriladi. Matn tanlaganda sodda qoliplangan variantlar ma'qul, asta-sekinlik bilan matnlar murakkablashib boradi. Matn uchun mavzu tanlanganda til o'rganuvchilarga qiziqarli kundalik hayotda uchratish mumkin bo'lgan vaziyatlarga moslari tanlansa maqsadga oson va tez erishiladi. Chet elliklar uchun tanlangan matnlarda ular o'rganayotgan til mansub bo'lgan xalq tarixi, madaniyati, dunyoqarashi aks topsa, til o'rganuvchilar uchun qiziq bo'ladi va bu til o'rganishlarida ham muayyan yengilliklar yaratadi. Matnga oid topshiriqlar berilib, ular video va audio matariallar bilan boyitilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorijiy tilni o'rgatishda xotira mashqlari ahamiyatli. Yodda saqlashning o'qish, yozish, tinglash, ko'rish kabi usullari mavjud.

Tinglab o'rganish azaldan til o'rganishning samarali usullaridan hisoblanadi. Bu tajribada sinalgan bo'lib, tinglash uchun mo'ljallangan matnlar va mashqlar to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishda, og'zaki va yozma nutqni ostirishda juda qo'l keladi. Matnni tinglab turib gapirish berish, sitata keltirish, bayon yozish, matnni davom ettirish kabi topshiriqlarni berish orqali mavzuni mustahkamlash mumkin. Shu kabi matn ustida ishlash jarayonida til egallash imkoniyatlari kengayadi. Matn ustida ishlash ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon bosqichma bosqich amalga oshiriladi:

Birinchidan, o'rganuvchi bilimini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, ravon nutqni egallash omil bo'ladi.

Ikkinchidan, shunga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarda nutqiy malaka va ijodiy ko'nikmalarni shakllantiriladi.

Uchinchidan, mustaqil fikrlash va bayon etish mayllarini rivojlantiradi.

Xorijiy tilni o'rganishda mustaqil ta'limning ham o'ziga xos o'rni bor. Buni hech kim inkor qilolmaydi, chunki til o'rganish uzoq muddatli murakkab jarayon. Hozirigi

kunda yangicha ta'lim olish shakllari ommalashib bormoqda. Shulardan biri – masofaviy ta'lim. Bu jarayon mustaqil bilim olish imkonini beradi. Buning uchun fan sohalari bo'yicha elektron darsliklarni yaratish, ularni amalda qo'llash, virtual dars jarayonini tashkil etish kabi ishlarni amalga oshirish lozim.

O'quv jarayonida qo'llash uchun mo'ljallangan elektron resurslar uning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ma'lumki, elektron darsliklar topshiriq va amaliy materiallarni o'zida jamlagan holda bilimlarni nazorat qilish va sifatni o'sha zahoti baholash imkonini beruvchi yuqori texnologiyali manba hisoblanadi.

Elektron darsliklarda har bir mavzuga oid grammatik materiallar, mashqlar, o'qish uchun matnlar, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar va turli shakldagi nazorat testlari berilishi lozim. Ularda oddiydan murakkabga tamoyiliga rioya qilgan holda til o'rganuvchining bilim darajasiga ko'ra mashqlar tanlash imkonini yaratish, mustaqil ta'limda yetarlicha e'tibor qaratish va shularga ko'ra beriladigan materiyallarni muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Elektron darsliklarda beriladigan test topshiriqlari nafaqat o'zlashtirishni nazorat qiladi, balki o'rgatuvchi o'qituvchi vazifasini ham bajaradi. Mazkur test topshiriqlarini yechish jarayonida mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirish ham ko'zda tutilishi kerak. Elektron darsliklar uchun test topshiriqlari:

- mavzuning o'quv maqsadga mos kelishi;
- taqdim etilgan materiallarning muhimligi;
- ilmiy aniqlik;
- izchillik va mantiqiylik;
- o'zlashtirish darajasiga ko'ra farqlanishi;
- samaradorlik;
- bayonning sodda, ravon, aniq va tushunarlilik ;
- bir ma'nolilik;
- vaqtning qat'iy belgilanishi;
- ixchamlilik;
- variantlilik kabi bir qancha talablar doirasida shakllantirilgan bo'lishi lozim.

**Xulosa.** O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitilganda masofaviy ta'limda keng amalda foydalanish bugungi kun talabi. Bu yo'l orqali ta'lim sifatini, samaradorligini oshirish imkoniga ega bo'lish bilan bir qatorda, o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlari va o'zlashtirganlik darajalarini tez, haqqoniy aniqlash mumkin. Buning uchun yuqori saviyali elektron darsliklar va bilimlarni nazorat qilish tizimi sifatida elektron test topshiriqlari majmualarini yaratish hozirda pedagoglar oldidagi dolzarb vazifadir.

Demak, til o'rganish va o'qitish murakkab, davomli jarayon uni amalga oshirish ko'p mehnat talab etadi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda jahon tajribasidan foydalangan holda zamonaviy ta'lim usullarini yolg'a qo'yish, ta'lim resurslarining sifatini

oshirish, bilim berish jarayonini darajalarga bo'lish, ta'lim resurslarini va ularda berilgan ma'lumotlarni o'zaro muvofiqligini ta'minlash lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 367 b.
2. Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish masalalari. – Toshkent, 2014. – 69 b.
3. Талипова Р.Т. Сопоставительный курс грамматики русского и узбекского языков. – Ташкент, 2009. – 136 с.
4. Axmedova M.X., Gayubova. O'zbek tili. (Qo'llanma). – Toshkent: Aloqachi, 2020. – 212 b.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 76 b.
6. Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2003. – 40 b.

